


Xovos tumani Axborot-kutubxona markazi



**15 aprel yozuvchi, olim, jamoat arbobi Sadriddin Ayniy Sadriddin
tavallud topgan kun munosabati bilan”Ayniy haqida
bilmaganlarimiz ayon bo’lmoqda”mavzusida**

Bibliografik qo‘llanma

Xovos tumani 2021yil

Yetuk tojik yozuvchisi va shoiri, davlat va jamoat arbobi Sadriddin Ayniy tavallud topgan kun munosabati bilan - Axborot- bibliografiya xizmati tomonidan tayyorlangan: bibliografik qo'llanma /tuzuvchi : D.Qosimova Xovos tumani Axborot-kutubxona markazi, 2021yil

Ushbu qo'llanma Yozuvchi, olim, jamoat arbobi Sadriddin Ayniy tavallud topkan kunga bag'ishlanadi.



Qo'llanmadan axborot – kutubxona muassasalari mutaxassislari foydalanishlari mumkin.



Sadriddin Ayniy (tojikcha: Sadriiddin Aynī; haqiqiy ismi Sadriiddin Said-Murodzoda (tojikcha: Sadriiddin Said-Murodzoda); 1878-yil, 15-aprel, Sektare qishlogʻi, Buxoro amirligi — 1954-yil, 15-iyul, Stalinobod, Tojikiston SSR, SSSR) — yetuk tojik yozuvchisi va shoiri, davlat va jamoat arbobi. Sovet davridagi tojik adabiyoti asoschisi. Asosan tojik va oʻzbek tillarida ijod qilgan. Tojikiston Fanlar Akademiyasining birinchi prezidenti (1951—1954), Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasi faxriy aʼzosi (1943), Tojikistonda xizmat koʻrsatgan fan arbobi (1940), filologiya fanlari doktori (1948), professor (1950). Tojikiston Qahramoni unvoni sohibi (1998), qator sobiq SSSR orden va medallari sohibi.

Sadriddin Said-Murodzoda 1878-yilning 15-aprel kuni Buxoro amirligi- ning Sektare qishlogʻida, tojik oilasida tugʻilgan. 1884 - 1987-yillarda eski maktabda, keyin bir qator madrasalarda: Buxorodagi Mir Arab (1890—1891), Olimxon (1892—1893), Badalbek (1894—1896), Hoji Zohid (1896-1899) va Koʻkaldosh (1899-1900) madrasalarida tahsil olgan. Ahmad Donish va ozarbayjon yozuvchisi Hoja Marogʻiyning hamda jadid maʼrifatparvarlarining asarlari uning dunyoqarashiga sezilarli taʼsir koʻrsatadi. A. Buxoroda yangi usuldagi maktablar ochadi, ular uchun oʻquv qoʻllanmalar, ommani ilm-maʼrifatga chaqiruvchi sheʼr va hikoyalardan iborat "Yoshlar tarbiyasi" (1909) darsligini tuzadi. "Yosh

buxoroliklar" harakatida faol qatnashadi. 1918—21 yillarda tojikcha, o'zbekcha marsh, qo'shiq va she'rlar yaratadi. "Buxoro jallodlari" (1922) povesti, "Buxoro mang'it amirligining tarixi" (1921) asarida Buxoroning ijtimoiy-siyosiy hayoti ifodalangan. "Odina", "Qiz bola yoki Xolida" (1924), "Tojik adabiyotidan namunalar" (1926), "Qulbobo yoki ikki ozod" (1928) kabi qissa, hikoya, ocherklari muhim ahamiyatga ega. A. tojik va o'zbek adabiyotlarining ming yillik tarixiy taraqqiyotida yetishib chiqqan 200 dan ortiq shoir, tarixchi, olim, tazkiranavislar hayoti va ijodi haqida ma'lumot beradi. A. 1927-29 yillarda yirik romani "Doxunda"ni tojik tilida nashr ettirdi. 1934 yilda esa o'zbek tilida "Qullar" romanini yaratdi. Unda o'zbek va tojik xalqining yuz yillik hayoti aks etadi. A.ning "Eski maktab" (1935) asarida eski maktabdagi o'qish va o'qitish haqida hikoya qilinadi. Yigirmanchi yillarda e'lon qilingan qator hajviy asarlari, "Yana bu qaysi go'rdan chiqdi", "Puling halol bo'lsa, to'y qil" (1924), "Mashrab bobo", "E, to'nim" (1925), "Bilganim yo'q", "Ken-gash" (1926) kabi o'zbekcha feletonlari, 242 hajviy she'r va maqolalari, ayniqsa, "Sudxo'rning o'limi" (1939) hajviy povesti yozuvchining mohir satirik ekanligini ko'rsatdi. Muqanna va Temur Malik boshchiligidagi xalq qo'zg'olonini aks ettiruvchi adabiy-tarixiy ocherklar yozdi. U to'rt qismdan iborat "Esdaliklar"ida (1949—54) Buxoroning o'tmish hayoti va o'sha davr ijtimoiy-madaniy muhitini yoritadi.

A. adabiyotshunos, tilshunos, sharqshunos olim sifatida "Firdavsiy va uning "Shohnoma"si haqida" (1934), "Kamol Xo'jandi", "Shayxur-raisi Abu Ali ibn Sino" (1939), "Ustod Rudakiy" (1940), "Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy" (1942), "Alisher Navoiy" (1948), "Zayniddin Vosifiy" (uning "Badoye ul-vaqoye" asari haqida), "Mirza Abdulqodir Bedil", Muqimiy va boshqalar haqidagi asarlari o'zbek va tojik adabiyotshunosligi va tanqidchiligidagi, "Fors va tojik tillari haqida", "Tojik tili" kabi ilmiy ishlari tojik tilshunosligida muhim voqea bo'ldi. A.ning "Doxunda", "Qullar", "Sudxo'rning o'limi" va "Esdaliklar" asarlari xorijiy tillarga tarjima qilingan. O'zbekiston va Tojikiston Respublikalaridagi bir qator shahar, tumanlar, qishloqlar, ko'chalar, maktablar, kutubxonalar, san'at va madaniyat muassasalari A. nomiga qo'yilgan. Samarqandda A. yodgorlik uy-muzeyi ochildi (1967).

Sadriddin Ayniy vaqt o'tgan sayin ijodiyotning qadr-qiymati ortib, teranlik sirlari kengroq, chuqurroq kashf etiladigan qalam sohiblaridan sanaladi. Olloh ustod Ayniyga bir necha yaxshi olim, sermahsul yozuvchiga yetadigan iste'dod bergan. Ayniy yaratgan ilmiy tadqiqotlarning hajmiga teng asarlar yozish ehtimolki ikki-uch zahmatkash

olimning qo‘lidan kelar. Ammo bu asarlarning Ayniy tadqiqotlari sifat va saviyasi bilan bellasha olishiga kim kafolat bera oladi? Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi”, “Esdaliklar” kitobi manaman degan ulug‘ bir iste’dodning shon-shuhratini jahonga taratish va muallifiga badiiy haykal o‘laroq boqiy yashash qudratiga ega, desa aslo xato bo‘lmaydi. Bunga aniq ishonmoq uchun esa ushbu ikki nodir kitobni jahonning qaysi xalqlari tillarga tarjima qilinganligini xayoldan o‘tkazish kifoya. Ayniyning hikoya va romanari, tarixiy asarlari-chi? Uning she‘riyati, shoirlik qiyofasi va Sharq she‘riyatiga qo‘shgan hissasi haqida biz nima bilamiz? Deyarli hech narsa.

Ayniyning ilmiy-ijodiy merosini adbiyot, tarix, pedagogik yoki adabiyotshunoslik nuqtai nazaridangina emas, balki tilshunoslik jabhasidan ham baholash lozim bo‘ladi. Ayniyning ulug‘ligi ham, tengsizligi ham ana shunda – u boshqa bировlar uddalay olishga aql bovar qilmaydigan ishlarni qoyillatib bajarishga qodir bilim va salohiyat sohibi edi. Ayniy ilm va ijod uchun tug‘ilganligini bilar, shuning uchun butun kuch-quvvati, qobiliyatini ilm-fan, adabiyot ravnaqiga bag‘ishlagandi.

Sharq mumtoz ilmiy-adabiy merosini o‘qib-o‘rganish, tadqiq va targ‘ib qilishda Ayniy erishgan natija va yutuqlarga faqat havas qilish, ulardan ibrat olish mumkin. Ammo Ayniyning “panjasiga panja urish” behad dushvor. Shuning uchun ham uning Rudakiy, Ibn Sino, Sa‘diy, Navoiy, Bedil kabi daholarga bag‘ishlangan tadqiqotlari shu kungacha o‘zining ilmiy qimmati va ahamiyatini saqlab kelmoqda. Biz shu o‘rinda Ayniyning faqat bedilshunosligiga daxldor ayrim mulohazalariga e’tiborni qaratmoqchimiz. Ma’lumki, Atsniy madrasada tahsil olayotgan davrlarda Buxoroda ulug‘ faylasuf shoir Mirzo Bedil ijodiyotiga qiziqish ancha kuchaygan edi. Turli ijtimoiy tabaqadagi did va saviyasi turlicha bo‘lgan kishilar bedilxonlik qilishgan. Shoirlar Bedilga ergashib nazira va taxmislar bitishgan. Ayniy bu jarayonning ham kuzatuvchisi, ham ishtirokchisi edi. Bedilga ko‘r-ko‘rona taqlidlarni u istiqbolsiz bir ijodiy harakat o‘laroq rad etgan. Chunki Ayniy madrasadayoq zukko bedilshunos sifatida shakllangan.

«Saning tarixi davroning, saning osori urfoning,
Saning noming, saning shoning jahon qoldiqcha qolmasmu?
Vatan avlodi yod etdi, sani hurmatda shod etdi,
Va lekin intiqomingni ololurmi, ololmasmu?» - deb yozgan.




Asarlari:

«Esdaliklar» (tarjimai hol asari);
«Tahsib us - sibyon» («Pok bola»);
«Yoshlar tarbiyasi» (1909) darsligi;
«Buxoro jallodlari» (1922);
«Odina » (1924);
«Qulbobo yoki ikki ozod» (1928);
«Yetim» (1940);
«Sudxo'ring o'limi» (1939);
«Eski maktab» (1935) kabi qissalar,
«Doxunda» (1930);
«Qullar» (1934) kabi romanlar,
«Tojik adabiyotidan namunalar» (1926);
«Qiz bola yoki Xolida» (1924);
«Alisher Navoiy»;
«Ustod Ro'dakiy» kabi ilmiy tadqiqotlari

Mukofotlari:

Stalin premiyasining ikkinchi darajasi (1950-yilda);
3 ta «Lenin ordeni» (ruscha: «Orden Lenina»);
«Qizil Bayroq Ishchi ordeni» (ruscha: «Orden Trudovogo Krasnogo Znameni»);
Tojikiston Sovet Sotsialistik Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi;
O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Fanlar Akademiyasining akademigi
«Tojikiston Qahramoni» unvoni sohibi.



Nishonalar:

Sadriiddin Ayniy tug'ilgan Saktari (Buxoro viloyati, G'ijduvon tumani) qishlog'ida uning uy-muzeyi mavjud.

Samarqand shahrining markaziy qismida Sadriiddin Ayniy uy-muzeyi mavjud. Ushbu uyda U 1917-yildan to 1950-yillarning boshigacha yashagan.

Dushanbe (Tojikiston) shahri ko'chalaridan biriga Sadriiddin Ayniy nomi berilgan.

Samarqand (O'zbekiston) shahri ko'chalaridan biriga Sadriiddin Ayniy nomi berilgan.

Buxoro (O'zbekiston) shahri ko'chalaridan biriga Sadriiddin Ayniy nomi berilgan.

Bishkek (Qirg'iziston) shahri ko'chalaridan biriga Sadriiddin Ayniy nomi berilgan.

Oozon (Rossiya) shahri ko'chalaridan biriga Sadriiddin Ayniy nomi berilgan.

Samarqand shahrida Sadriiddin Ayniy haykali o'rnatilgan.


Dushanbe shahrida "Sadriiddin Ayniy va Maksim Gorkiy suhbatini" nomli haykal o'rnatilgan.

1958 va 1968-yillardagi SSSR pochta markalaridan biri Sadriiddin Ayniyga bag'ishlangan.

Sadriiddin Ayniy portreti Tojikistonning valyutasi — somoniyni 5 somoniy qiymatidagi kupyurasida aks ettirilgan.

Maqolalar mundarijasi:

- Sadriddin Ayniy. Doxunda (roman)
- Sadriddin Ayniy. Qisqacha tarjimai holim
- Sadriddin Ayniy. Qullar (roman)
- Sadriddin Ayniy. Sudxo'ring o'limi (qissa)
- Sadriddin Ayniy. Esdaliklar



ADIB TAXALLUSI MA'NOSI

Sadriddin Ayniydan:

- Taxallusingizning ma'nosi nima? – deb so'rashganida u:
- Lug'atlarda "ayn" so'zining qirq sakkizta ma'nosi berilgan. Kerak bo'lsa, o'zingiz lug'at ko'rib bilib olavering! – deb javob bergan ekan.

BEHBUDIY RUHIG'A ITHOF

(Shabi hijron havosig'a)

Sani mundin buyon Turon ko'rolurmu, ko'rolmasmu?
Saning mislingni Turkiston topolurmu, topolmasmu?

San, ey ustodi oliyshon, eding ajubai davton,
Otingni tilga har inson buyuk hurmat-la olmasmu?

Saning tarixiy davroning, saning osoru urfoning,
Saning noming, saning shoning jahon qoldiqcha qolmasmu?

Saning ko'ksung cho'kulganmu, saning beling bukulganmu?
Saning qoning to'kulganmu? Muni(ng) hech kim so'rolmasmu?

Boshingni kesduran qotil, u badiynat, u sangin dil,
Xudodan gar esa g'ofil, xaloyiqdan uyolmasmu?

Vatan avlodi yod etdi, sani hurmat-la shod etdi,
Va lekin intiqomingni ololurmu, ololmasmu?

Jahonda zulmdur zohir, jahon xunxo'r, jahon jobir,
Jahondan bir zamon oxir sitamgarlik yo'qolmasmu?

Behishtu hurii g'ilmon sanga Haq aylasun ehson,
Sanga rahmat, sanga g'afron Xudoyim yetkazolmasmu?!

Xulosa

Sadriddin Ayniy vaqt o'tgan sayin ijodiyotning qadr-qiymati ortib, teranlik sirlari kengroq, chuqurroq kashf etiladigan qalam sohiblaridan sanaladi. Oллоh ustod Ayniyga bir necha yaxshi olim, sermahsul yozuvchiga yetadigan iste'dod bergan. Ayniy yaratgan ilmiy tadqiqotlarning hajmiga teng asarlar yozish ehtimolki ikki-uch zahmatkash olimning qo'lidan kelar. Ammo bu asarlarning Ayniy tadqiqotlari sifat va saviyasi bilan bellasha olishiga kim kafolat bera oladi? Ayniyning "Sudxo'rning o'limi", "Esdaliklar" kitobi manaman degan ulug' bir iste'dodning shon-shuhratini jahonga taratish va muallifiga badiiy haykal o'laroq boqiy yashash qudratiga ega, desa aslo xato bo'lmaydi. Bunga aniq ishonmoq uchun esa ushbu ikki nodir kitobni jahonning qaysi xalqlari tillariga tarjima qilinganligini xayoldan o'tkazish kifoya.

Atrofimizda turlicha tabiat yegalari bor. Kimdir ochiq ko'ngil-kimdir g'azabnok, kimdir shafqatli-kimdir mexirsiz, kimdir samimiy-kimdir xushomadni yaxshi ko'radi. Ammo shunday tabiatli insonlar toifasi borki ular nafaqat og'zaki gurunglaraning, balki butun boshli asarlarning qaxramonlariga aylanganlar. Shunday qaxramonlardan biri shubxasiz, Sadriddin ayniyning xasislikda, sudxo'rlikda dong'i ketgan qori ishkambasidir. Boylik, mol-dunyo nafaqat kshzini, balki butun ong-u shuurini yegalab olgan Ishkamba obrazi uning qarashlari, atrofdagi odamlar vayashayotgan muxtg munosabati kitobxoning kulgidan ko'ra, g'azabini, ko'rchilik xolatlarda esa chin dildan raxm-shafqat tuyg'isini uyg'otadi.

Xovos tumani axborot-kutubxona markazi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayniy, Sadriddin
Eski maktab: qissalari/ Qadriddin Ayniy. - toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. 24b.
2. <https://kh-davron.uz/>